

GEOGAFIK KO'RSATKICHLARNING HUQUQIY HIMOYASI

To'rayev Furqat Xolmatovich

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

furkat.turaev01@gmail.com

ANNOTATSIYA

Hozirgi kunda O'zbekiston ning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonlari jadallik bilan davom etayotgan bir vaqtda, geografik ko'rsatkich (bundan buyon GK deb yuritiladi)larni huquqiy tartibga solish va ularning samarali himoya tizimi bilan ta'minlash masalasi dolzarb bo'lib bormoqda. Mamlakatimizda GKlarning huquqiy himoyasi tizimida ma'muriy javobgarlikning o'rnatilganligi va himoyani kuchaytirish maqsadida jinoiy javobgarlik choralarining o'rnatilishi GKlarga bo'lgan huquqni samarali himoya qilish muhim qadam bo'ldi. Biroq, ushbu usullar bilan bir qatorda, GK huquq egalari tomonidan fuqarolik huquqiy himoya mexanizmlarining to'liq salohiyatidan foydalanilmayotgani kuzatilmoqda. Ushbu ilmiy maqolaning asosiy maqsadi - GKlarning huquqiy himoyasini yanada kuchaytirishda ma'muriy, jinoiy va fuqarolik huquqiy vositalarining rolini oshirish masalalarini chuqur o'rganishdan iborat. Tadqiqotda, qiyosiy hamda normativ huquqiy tahlil metodlari qo'llanilgan. Asosiy natija shuni ko'rsatadiki, GK bilan bog'liq huquq buzilishlariga qarshi samarali kurashish uchun ma'muriy va jinoiy choralar bilan bir qatorda, geografik ko'rsatkich egalarining mulkiy va nomulkiy huquqlarini tiklashga qaratilgan aniq fuqarolik-huquqiy himoyasining rolini oshirish zaruriyati mavjud. Maqolada GK huquqiy himoyasini mustahkamlash bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: *Geografik ko'rsatkichlar, GKga bo'lgan huquqlarni himoya qilish, GKlarga bo'lgan huquq buzilishi, GKlarga bo'lgan huquq buzilishlari yuzasidan javobgarlik.*

KIRISH

Barchamizga ma'lumki, GKlarni huquqiy tartibga solish masalalari XX asrga borib taqaladi. Huquqiy tartibga solish bilan bir qatorda ularning huquqiy himoyasi ham shu davrlarda ta'minlana boshlagan. GK larning huquqiy tartibga solinishi mamlakatlar uchun o'zlarining "milliy brend"larini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, GKlarning iqtisodiy afzalliklari bilan bir qatorda madaniy ahamiyati ham judayam yuqori hisoblanadi. Misol uchun, "Shvetsariya soati" Shvetsariyani, "Champagne" Fransiyaning Shampan viloyatini butun dunyoga mashhur qilib ulgurgan. Mamlakatimizda ham bunday qator hududlarni nafaqat

mahalliy miqyosda balki, xalqaro miqyosda ham mashhurlikka yetaklayotgan GKlar mavjud: Marg'ilon atlas, Samarqand noni shular jumlasidan.

Geografik ko'rsatkichlar tarixiga nazar tashlasak taxminan bir asrlik tarixga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Lekin hanuzgacha olimlar geografik ko'rsatkichlar kelib chiqishi bilan bog'liq bir qarorga kelishmagan. Ba'zi olimlar geografik ko'rsatkichlar tovar belgilarining bir turi desa, boshqalari esa uni tovar kelib chiqqan joy nomlari sirasiga kirishini ta'kidlaydilar. Misol uchun, tadqiqotchi M.Najmiddinovning fikricha, "tovar kelib chiqqan joy nomidan farqli ravishda tovarni geografik ko'rsatkich deb tan olish uchun ishlab chiqarish jarayonlarining bir qismi muayyan mintaqahududida o'tishi kifoya qiladi. Boshqa rakursdan qaraganda, geografik ko'rsatkichlar keng va umumiy huquqiy element, tovar kelib chiqqan joy nomi esa uning maxsus turi sanaladi"¹. Biz tadqiqotchi M.Najmiddinovning yuqorida keltirilgan fikriga qo'shilgan holda, geografik ko'rsatkichlar umumiy element, tovar kelib chiqqan joy nomi esa uning maxsus turi deb hisoblaymiz.

Ma'lumki, Geografik ko'rsatkich – tovarning muayyan geografik obyekt hududidan kelib chiqqan mahsulot sifatidagi identifikatsiyalovchi belgi hisoblanadi.²Bu judayam sodda ta'rif. Biz esa bu tushunchani yanada batafsilroq va kengroq muhokama qilishga kirishamiz. 2022-yil 3-martdagi "Geografik ko'rsatkichlar to'g'risida"gi qonunining 3-moddasida geografik ko'rsatkichlarga rasmiy ta'rif berilgan: "Tovarni muayyan geografik obyekt hududidan kelib chiqqan tovar sifatida identifikatsiyalovchi belgi geografik ko'rsatkich deb e'tirof etilib, unda tovarning sifati, nom qozonganligi yoki boshqa xususiyatlari (bundan buyon matnda tovarning xususiyatlari deb yuritiladi) uning geografik jihatdan kelib chiqishiga sezilarli darajada bog'liq bo'ladi. Mazkur geografik obyekt hududida tovarni ishlab chiqarishning tovarning xususiyatlarini shakllantirishga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan bosqichlaridan loqal bittasi amalga oshirilishi kerak"³ Endi esa ushbu tushunchaga izoh berishga harakat qilamiz. Geografik ko'rsatkichlar ham muayyan belgilarga ega hisoblanadi. Jumladan, tovarning sifati, obro'si va boshqa xususiyatlari bo'lishi kerak va aynan shu xususiyatlar ma'lum bir geografik hududga bog'liq bo'lishi lozim. Yanada soddaroq tilda izohlashga harakat qilib ko'ramiz. Misol sifatida Samarqand nonini oladigan bo'lsak, Samarqand noni albatta o'zining ma'lum bir sifat ko'rsatkichiga ega, nafaqat mamlakatimiz hududida balki butun dunyoda o'z obro'siga ega, shuningdek, boshqa xususiyatlarga ham ega (Samarqand havosi, iqlimi, suvi va boshqalar) va eng muhimi shu xususiyatlarning barchasi Samarqand viloyati

¹ M.Najmiddinov. Trips bitimi va O'zbekiston qonunchiligi doirasida georafik ko'rsatkichlar muhofazasi. Central Asian academic journal of scientific research. 2022.

² O'zbekiston Respublikasi hukumati portalidan olindi. <https://old.gov.uz/oz/news/view/33357>.

³ "Geografik ko'rsatkichlar to'g'risida" Qonun. O'RQ-757. 03.03.2022. 4-modda. <https://lex.uz/docs/-5889882>.

bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liq. Tadqiqotchi Z.Ochilovning fikricha, geografik ko'rsatkichlar quyidagi tarkibiy elementlardan iborat bo'lishi kerak:

- Mahsulotning nomi,
- Uning geografik hududga bog'liqligi,
- Mahsulotning sifati yoki xususiyatlari shu hududga xos ekanligi⁴.

Mazkur fikr yaxshi berilgan bo'lsa-da, umumiy holda qo'llanilgan hamda asosiy belgilardan birini qamrab olmagan. Ya'ni mahsulotning sifati **yoki** xususiyatidan biri shu hududga xos bo'lishining o'zi yetarli deb olingan. Bizning fikrimizcha, mahsulot sifatida **va** xususiyatlari aynan shu hududga xos bo'lishi kerak. Shuningdek, geografik ko'rsatkich deb e'tirof etilishi uchun tovar shu hududga xos nom qozongan ya'ni mashhurlikka erishgan bo'lishi lozim. Bu borada tadqiqotchi M.Najmiddinov fikriga qo'shilamiz: "Identifikatsiyadan tashqari geografik ko'rsatkichlar o'zida tovarning u yaratilgan geografik hudud va u yerdagi inson yoki tabiiy omillarga xos alohida sifat, shuhrat va boshqa xususiyatlarini ifodalab keladi"⁵.

Endi esa GKlarni himoya qilish bilan bog'liq masalalarga to'xtalamiz. Dastlab, huquqni muhofaza qilish va huquqni himoya qilish masalasiga qisqacha to'xtalib o'tsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Huquqni muhofaza qilish huquq buzilishidan oldin amalga oshirilsa, huquqni himoya qilish huquq buzilgandan keyin amalga oshiriladi. Shunday ekan, biz huquq buzilganidan keyin amalga oshiriladigan harakatlar haqida gaplashamiz. Avvalo, qanday harakatlar GKga bo'lgan huquqlarning buzilishi deb e'tirof etilishiga to'xtalamiz. "Geografik ko'rsatkichlar to'g'risida"gi qonunning 26-moddasida keltirilishicha:

"Quyidagilar geografik ko'rsatkichdan qonunga xilof ravishda foydalanish deb e'tirof etiladi:

ro'yxatdan o'tkazilgan geografik ko'rsatkichdan foydalanish huquqiga ega bo'lmagan shaxslar tomonidan undan foydalanish, hatto bunda, agar tovar ishlab chiqarilgan haqiqiy joy ko'rsatilgan bo'lsa yoki geografik ko'rsatkichdan uni tarjima qilgan holda yoxud "xildagi", "turdagi", "o'xshatib ishlangan" degan va boshqa shunga o'xshash so'zlar bilan qo'shib foydalanilayotgan bo'lsa ham;

ro'yxatdan o'tkazilgan geografik ko'rsatkichdan undan foydalanish huquqiga ega bo'lgan shaxslarning reyestrda ko'rsatilgan xususiyatlarga ega bo'lmagan yoxud geografik obyekt chegarasidan tashqarida ishlab chiqarilgan tovarga nisbatan foydalanishi;

⁴ Z. Ochilova. Geografik ko'rsatkichlar xalqaro muhofazasi. *Central Asian journal of research*. 2025. - 19-29-betlar.

⁵ M. Najmiddinov. TRIPS bitimi va O'zbekiston qonunchiligi doirasida geografik ko'rsatkichlar muhofazasi. *Central Asian academic journal of scientific research*. 2022. - 312-320.

ro'yxatdan o'tkazilgan geografik ko'rsatkichga o'xshash belgidan tovar ishlab chiqarilgan joy yoki tovarning xususiyatlari xususida iste'molchilarni chalg'itadigan tarzda har qanday tovarlar uchun foydalanish

Geografik ko'rsatkichdan qonunga xilof ravishda foydalanilgan yoki u bilan adashtirib yuborish darajasida o'xshash bo'lgan belgilardan foydalanilgan tovarlar, tovarlarning yorliqlari, o'rovlari kontrafakt hisoblanadi.⁶

Yuqoridagi holatlar sodda qilib aytganda GK ga bo'lgan huquqlarning buzilishi hioblanadi. Shundan kelib chiqib, ushbu huquqbuzarliklar uchun qanday javobgarliklar belgilanganligini tahlil qilamiz. Avvalo ilgari qo'llanib kelinayotgan ma'muriy javobgarlikdan boshlasak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 177-moddasi bilan 3 xil xatti-harakatga nisbatan ma'muriy javobgarlik nazarda tutilgan:

- ◆ o'zganing geografik ko'rsatkichidan foydalanish:
- ◆ adashtirib yuborish darajasida o'zganing GKiga o'xshash bo'lgan belgilardan foydalanish:
- ◆ O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilmagan geografik ko'rsatkichga nisbatan ogohlantiruvchi tamg'adan qonunga xilof ravishda foydalanish.

Ushbu harakatlar uchun kontrafakt ashyolarni musodara qilib, BHMning 15 baravaridan 30 baravarigacha miqdorda jarima qo'llanishi belgilab qo'yilgan. Agar ma'muriy javbgarlikdan so'ng 1 yil davomida takroran sodir etilsa, ashyolarni musodara qilib, jarima miqdori 30 baravaridan 50 baravarigacha bo'lgan jazo nazarda tutilgan javobgarlik belgilangan. Bu javobgarlik esa Kodeksga 2023-yil 15-noyabrda kiritilgan bo'lib, 2024-yil 17-fevralda kuchga kirgan.⁷

O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 8-avgustdagi O'RQ-1080-sonli [Qonuni](#) bilan jinoyat kodeksiga o'zgartirish kiritildi. Ushbu o'zgarish geografik ko'rsatkichlarga bo'lgan huquq buzulishi uchun jinoiy javobgarlik belgilanishini nazarda tutadi. Xuddi ma'muriy javobgarlik nazarda tutilgan harakat huquq egasiga ko'p miqdordagi zarar (ko'p miqdordagi zarar 300-500 BHM ni tashkil etadi⁸) yetishiga sabab bo'lsa, jinoiy javobgarlik belgilandi. Ushbu Jinoyat kodeksining 149²-moddasida nazarda tutilgan jinoyat uchun quyidagicha sanksiyalar belgilangan:

“bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud ikki yilgacha ozodlikni cheklash yoki ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

⁶ “Geografik ko'rsatkichlar to'g'risida” Qonun. O'RQ-757. 03.03.2022. 4-modda. <https://lex.uz/docs/-5889882>.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. 177-modda

⁸ <https://lex.uz/docs/-111453>

- a) takroran;
- b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- v) xizmat mavqeyidan foydalangan holda;
- g) juda ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda sodir etilgan bo'lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan bir yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud ikki yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki ikki yildan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi”⁹

Bundan tashqari, ushbu modda quyidagi ikki rag'batlantiruvchi sanksiyalarni o'z ichiga oladi:

“Yetkazilgan moddiy zararining o'zni qoplangan taqdirda ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmaydi.

Birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs, agar u yetkazilgan moddiy zararining o'rnini jinoyat aniqlangan kundan e'tiboran o'ttiz kunlik muddatda qoplagan bo'lsa, javobgarlikdan ozod etiladi”¹⁰.

Yuqoridagi rag'batlantiruvchi sanksiyalardan ma'lumki, qonun chiqaruvchining asosiy maqsdi jazolash emas, balki buzilgan huquqlarni tiklashga qaratilgan. Bu esa judayam ijobiy baholanishi lozim. Chunki, huquq buzilishini bartaraf etish bilan birga huquqlari buzilgan shaxslarning ko'rgan zararlarini ham yuqori baholash maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi himoya qilish usullari administrativ xarakterga ega hisoblanadi. Shuni unutmaslik lozimki, buzilgan huquqlar fuqarolik-huquqiy vositalar orqali ham ta'minlanishi mumkin. Jumladan, Fuqarolik Kodeksining 11-moddasiga muvofiq:

Fuqarolik huquqlari quyidagi yo'llar bilan himoya qilinadi:

huquqni tan olish;

huquq buzilishidan oldingi holatni tiklash va huquqni buzadigan yoki uning buzilishi xavfini tug'diradigan harakatlarning oldini olish;

bitimni haqiqiy emas deb topish va uning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo'llash;

davlat organining yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining hujjatini haqiqiy emas deb topish;

shaxsning o'z huquqini o'zi himoya qilishi;

burchni aslicha (natura) bajarishga majbur qilish;

zararni to'lash;

neustoyka undirish;

ma'naviy ziyonni qoplash;

⁹ <https://lex.uz/docs/-111453#-7684794>

¹⁰ O'sha joyda

huquqiy munosabatni bekor qilish yoki o'zgartirish;
davlat organining yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining qonunga zid hujjatini sudning qo'llamasligi.

Fuqarolik huquqlari qonunda nazarda tutilgan boshqacha usullar bilan ham himoya qilinishi mumkin¹¹.

Ya'ni huquqlari buzilgan shaxs, zarar qoplanmagan taqdirda, Fuqarolik sudiga da'vo qilish orqali huquq buzilishidan oldingi holatni tiklashi, zararni to'lashni, ma'naviy ziyonni qoplashni yoki yuridik shaxs bo'lsa ishchanlik obro'siga yetkazilgan zararni qoplashni talab qilishi mumkin.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish joizki, geografik ko'rsatkichlarning huquqiy tabiati ularni intellektual mulkning o'ziga xos obyekti sifatida e'tirof etishni taqozo etadi. Ularning huquqiy himoyasi uch yo'nalishda – **fuqarolik-huquqiy, ma'muriy-huquqiy va jinoiy-huquqiy** mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Fuqarolik-huquqiy himoya vositalari, asosan, huquqni buzgan shaxsga nisbatan da'vo arizasi berish, zararlarni undirish, noqonuniy foydalanishni to'xtatish yoki taqiqlash kabi choralarni o'z ichiga oladi. Ma'muriy javobgarlik esa o'zganing GKidan qonunga xilof ravishda foydalanish, o'xshash belgilar qo'llash yoki ro'yxatdan o'tgan GKni buzish holatlariga nisbatan qo'llanadi. Jinoiy javobgarlik esa eng og'ir holatlarda — GKdan noqonuniy foydalanish natijasida ko'p miqdorda zarar yetkazilganida qo'llanilishi mumkin. Geografik ko'rsatkichlarni samarali himoya qilish tizimini yaratish – bu nafaqat ishlab chiqaruvchilar manfaatini, balki mamlakatning iqtisodiy, madaniy va huquqiy imijini mustahkamlovchi omildir. Shu bois, kelgusida GKlarning huquqiy maqomini yanada mustahkamlash, ro'yxatdan o'tkazish jarayonini soddalashtirish, huquq buzilish holatlariga qarshi javobgarlik masalalarini takomillashtirish va huquqni qo'llash amaliyotini modernizatsiya qilish lozim.

REFERENCES

1. M.Najmiddinov.2022. Trips bitimi va O'zbekiston qonunchiligi doirasida georafik ko'rsatkichlar muhofazasi. *Central Asian academic journal of scientific research*. <https://www.researchgate.net/>
2. Z. Ochilova.2025. Geografik ko'rsatkichlar xalqaro muhofazasi. *Central Asian journal of research*. 19-29-betlar. <https://in-academy.uz/>
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi.
4. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi

¹¹ <https://lex.uz/docs/-111189>

5. O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi
6. “Geografik ko‘rsatkichlar to‘g‘risida” Qonun. O‘RQ-757. 03.03.2022. 4-modda.
7. O‘zbekiston Respublikasi hukumati portali.
<https://old.gov.uz/oz/news/view/33357>.